



UDK: 94(575.1)

*Mirsaid M. ABDURAXMONOV,*  
Tayanch doktorant, Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O'zbekiston  
Email: [mirsaidabduraxmonov854@gmail.com](mailto:mirsaidabduraxmonov854@gmail.com),  
ORCID: 0009-0009-6979-9985

NDKTU dotsenti, tarix fanlari nomzodi D.Ismoilova taqrizi asosida

**PRINT MEDIA OF NAVOI REGION AS A HISTORICAL SOURCE DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE:  
THE CASE OF SOCIO-ECONOMIC AND CULTURAL PROCESSES**

Annotation

This article examines the reflection of socio-economic and cultural processes in the print media of Navoi region during the years of independence as a historical source using content analysis. Materials from regional newspapers were analyzed. The findings reveal three stages of media evolution: transformational explanation, institutional stability, and critical activity. The study demonstrates that regional print media serve as important written historical sources for studying the independence period.

**Keywords:** print mass media, regional press, historical source, content analysis, socio-economic processes, cultural processes, media evolution, Navoi region.

**ИЗУЧЕНИЕ ПЕЧАТНЫХ ИЗДАНИЙ НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ КАК  
ИСТОРИЧЕСКОГО ИСТОЧНИКА: НА ПРИМЕРЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ И КУЛЬТУРНЫХ  
ПРОЦЕССОВ**

Аннотация

В статье рассматривается отражение социально-экономических и культурных процессов в печатных изданиях Навоийской области в годы независимости как исторического источника на основе контент-анализа. Проанализированы материалы региональных газет. Выделены три этапа развития прессы: трансформационного объяснения, институциональной стабильности и критической активности. Показано, что региональные печатные издания являются важным письменным историческим источником периода независимости.

**Ключевые слова:** печатные средства массовой информации, региональная пресса, исторический источник, контент-анализ, социально-экономические процессы, культурные процессы, эволюция прессы, Навоийская область.

**MUSTAQILLIK YILLARIDA NAVOIY VILOYATI BOSMA NASHRLARINI TARIXIY MANBA SIFATIDA  
O'RGANISH: IJTIMOY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR MISOLIDA**

Аннотация

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Navoiy viloyati bosma nashrlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning aks etishi tarixiy manba sifatida kontent-analiz asosida o'rganildi. Tadqiqotda "Do'stlik bayrog'i", "Знамя дружбы", "Qiziltepa tongi", "Karmana ovozi" va "Xatirchi hayoti" gazetarining materiallari tahlil qilindi.

Natijalar hududiy matbuot mazmunida uch bosqich – transformatsion tushuntiruv, institutsional barqarorlik va tanqidiy faollik davrlarini aniqladi. Tadqiqot hududiy bosma nashrlarning mustaqillik davri tarixini o'rganishda muhim yozma manba ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** bosma ommaviy axborot vositalari, hududiy matbuot, tarixiy manba, kontent-analiz, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, madaniy jarayonlar, matbuot evolyutsiyasi, Navoiy viloyati.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlarga olib keldi. Bu jarayonlar ommaviy axborot vositalari tizimining rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, hududiy bosma nashrlar jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettiruvchi muhim axborot manbai, tarixiy manba va ijtimoiy institut sifatida shakllandi. O'zbekiston hududida bosma ommaviy axborot vositalarining shakllanishi tarixi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu davrda matbuot ma'rifiy va ijtimoiy uyg'onish vositasi sifatida namoyon bo'lgan. Chor Rossiyasi va keyinchalik Sovet davrida esa matbuot asosan mafkuraviy vosita sifatida faoliyat yuritgan bo'lib, uning mazmuni markaz manfaatlariga xizmat qiluvchi g'oyalar asosida shakllantirilgan.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi o'rni va roli davlat siyosati darajasida ham alohida

e'tirof etilmoqda. Jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev ommaviy axborot vositalarining jamiyat rivojiga ulkan ta'sirini bir necha bor e'tirof etadi. Jumladan, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida "oshkoralik va so'z erkinligi – davr talabi" sifatida baholanib, so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratgan[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ilmiy adabiyotlarda matbuot jamiyat taraqqiyotining muhim indikatorlaridan biri sifatida talqin etiladi. Xususan, Edward Allworth Markaziy Osiyoda matbuotning rivojlanishini jamiyat modernizatsiyasi jarayonlari bilan bevosita bog'laydi [2]. Shuningdek, Ingeborg Baldauf ommaviy axborot vositalarini ijtimoiy transformatsiyalarni aks ettiruvchi muhim kommunikativ tizim sifatida baholaydi[3]. Demak, OAV tizimi jamiyatdagi modernizatsiya va ijtimoiy transformatsiya jarayonlarini aks ettiruvchi hamda ularning rivojlanish darajasini belgilovchi muhim indikator sifatida namoyon bo'ladi.

Mahalliy tadqiqotchilar ham bosma ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi roliga alohida e'tibor qaratgan. Jumladan, ba'zi tadqiqotlarda mustaqillik yillarida matbuot tizimining mafkuraviy modeldan axborot bozoriga moslashuv jarayoni, ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotida axborot tarqatish bilan birga ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, jamoatchilik fikrini yo'naltiruvchi institut sifatida talqin qilinadi [4,5]. Yana bir tadqiqotda O'zbekistonda matbuot tizimi mustaqillikdan keyingi davrda yangi rivojlanish bosqichiga o'tib, zamonaviy talablar asosida takomillashganligi qayd etiladi [6]. Shunday qilib, mustaqillik yillarida bosma nashrlar mafkuraviy vositadan jamiyatda ijtimoiy ong va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, ijtimoiy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim vositaga aylanganini qayd etish mumkin.

Hududiy bosma nashrlarning o'ziga xosligi shundaki, ular muayyan hududdagi real ijtimoiy hayotni, iqtisodiy jarayonlarni va madaniy muhitni bevosita aks ettiradi. Navoiy viloyati hududiy matbuoti mustaqillik yillarida shakllangan axborot makonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Viloyatda chop etilgan "Do'stlik bayrog'i", "Znamya drujby", "Qiziltepa tongi", "Karmana ovozi" hamda "Xatirchi hayoti" kabi gazetalarining materiallari hududiy miqyosda jamiyat hayotini aks ettiruvchi asosiy manbalar sirasiga kiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi hududiy bosma nashrlar mazmunidagi o'zgarishlarni tizimli ravishda o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi – mustaqillik yillarida Navoiy viloyati bosma nashrlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning aks etish dinamikasini kontent-analiz asosida aniqlash va ilmiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu tadqiqotda hududiy bosma nashrlar tarixiy manba sifatida ko'rib chiqilib, ularda aks etgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar mustaqillik davri tarixini o'rganishda muhim empirik asos sifatida tahlil etiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda mustaqillik yillarida Navoiy viloyati bosma nashrlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning aks etish dinamikasini aniqlash maqsadida kontent-analiz usuli qo'llanilib, bosma nashrlar tarixiy manba sifatida tizimli ravishda o'rganildi. Ushbu usul bosma ommaviy axborot vositalari materiallarini tizimli ravishda o'rganish, ularning mavzu yo'nalishlari va mazmuniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotda bosma nashrlar tarixiy manba sifatida ko'rib chiqilib, ulardagi ma'lumotlar manbashunoslik yondashuvi asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot obyekti sifatida hududiy bosma nashrlar tarixiy manba sifatida – "Do'stlik bayrog'i", "Znamya drujby", "Qiziltepa tongi", "Karmana ovozi" hamda "Xatirchi hayoti" gazetalarining materiallari tanlab olindi. Viloyatda yuqoridagi gazetalaridan tashqari yana bir nechta bosma nashrlar mavjud. Aynan mazkur nashrlar tadqiqot obyekti sifatida tanlanishiga sabab hududiy xilma-xillikni ta'minlashdir. Bundan tashqari, ushbu gazetalar uzoq yillik faoliyat tajribasiga ega hamda ijtimoiy-siyosiy yo'nalishda chop etilishi bilan ajralib turadi.

Tahlil jarayonida gazeta materiallari quyidagi mezonlar asosida guruhlandi:

ijtimoiy-iqtisodiy mavzular;  
madaniy-ma'rifiy materiallar;  
tanqidiy-tahliliy chiqishlar.

Bundan tashqari, materiallar mazmuniy xususiyatiga ko'ra rasmiy-axborot, tahliliy va muammoli materiallarga ajratildi. Tadqiqot mustaqillik yillarini qamrab olgan holda uch shartli bosqich asosida amalga oshirildi. Birinchi bosqich transformatsion tushuntiruv davri, ikkinchi bosqich institutsional barqarorlik davri, uchinchi bosqich esa tanqidiy faollik davrini o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichlar hududiy matbuot mazmunidagi ustuvor jarayonlar asosida ajratildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va umumlashtirish metodlaridan ham foydalanildi. Bu esa hududiy bosma nashrlar mazmunidagi o'zgarishlarni kompleks tarzda baholash imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** 1. Transformatsion tushuntiruv bosqichi (1992-2000 yillar). Mazkur bosqichda hududiy bosma nashrlar mazmunida iqtisodiy islohotlar, xususiylashtirish jarayonlari hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq mavzular ustuvorlik qilgan. Gazeta materiallarida davlat siyosatini tushuntirish, yangi iqtisodiy munosabatlarni izohlash asosiy yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, "Do'stlik bayrog'i" gazetasi 1994-yilgi sonlarida "Paxta-94" rukni ostida qishloq xo'jaligi jarayonlari, mehnat natijalari hamda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari keng yoritilgan. "Mukofotlar topshirildi", "Viloyatimiz xabarlari" kabi materiallar orqali rasmiy tadbirlar va yutuqlar yoritilgan. Bundan tashqari, "Tarbiya, nikoh, mas'uliyat" mavzusida hamda "Hikoyat va rivoyatlar" rukni ostida maqolalar nashr yuzini ko'rgan [7]. Mazkur holat ushbu davrda bosma nashrlarning asosiy funksiyasi tushuntiruv va targ'ibot xarakteriga ega bo'lganini ko'rsatmoqda. Ushbu davrda "Знамя дружбы" gazetasi materiallarida davlat mustaqilligi, yangi siyosiy-iqtisodiy tizimni tushuntirish va jamiyatni yangilanish jarayonlariga moslashtirishga qaratilgan materiallar ustuvor bo'lgan. Xususan, gazetaning 1993-yil 31-avgust sonida "По пути независимости – к светлому будущему" nomli maqolada mustaqillikning mazmun-mohiyati, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda jamiyat taraqqiyoti istiqbollari keng yoritilgan. Shuningdek, ushbu son materiallarida qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va mehnat faoliyatiga oid "Четыре девятки еще потрясут мир" kabi maqolalar orqali iqtisodiy natijalar va ishlab chiqarish jarayonlari yoritilgan [8]. Demak, bu davrda "Знамя дружбы" gazetasi materiallari orqali jamiyatga yangi siyosiy-iqtisodiy tizimni tushuntirish, davlat siyosatini targ'ib qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni izohlash ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lgan. "Xatirchi hayoti" gazetasi materiallari ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Jumladan, 2007-yil 3-mart sonida "8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni" munosabati bilan e'lon qilingan tabrik materialida ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning mehnati va ijtimoiy faolligi keng yoritilgan. Bu maqolada davlat siyosati va ijtimoiy qadriyatlar uyg'un holda tushuntirilgan. Shuningdek, "Natijalar tahlili va istiqbollar" kabi materiallarda tuman miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tahliliy tarzda yoritilib, aholiga tushuntirish vazifasi bajarilgan [9]. Demak, mazkur davrda "Xatirchi hayoti" gazetasi materiallari orqali ijtimoiy qadriyatlarini targ'ib qilish va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni aholiga tushuntirish matbuotning asosiy funksiyalaridan biri bo'lgan.

2. Institutsional barqarorlik bosqichi (2001-2016 yillar). Bu davrda hududiy bosma nashrlar faoliyati nisbatan barqarorlashib, ularning mazmunida rasmiy axborot ustuvorligi saqlanib qolgan. Gazeta materiallarida davlat dasturlari, hududiy rivojlanish loyihalari va ijtimoiy sohalardagi yutuqlar keng yoritilgan. Tanqidiy materiallar mavjud bo'lsa-da, ularning ulushi nisbatan kam bo'lgan.

"Do'stlik bayrog'i" gazetasi 2007-yilgi sonlaridan birida viloyat hokimining bayram tabrigi, mehnat jamoalari faoliyati hamda ijtimoiy hayotga oid materiallar keng o'rin egallagan. Bu esa matbuotning institutsional tizim tarkibida faoliyat yuritganini ko'rsatadi [10]. "Знамя дружбы" gazetasi materiallarida ham davlat va jamiyat hayotidagi barqarorlik, ijtimoiy rivojlanish, iqtisodiy natijalar va turli sohalardagi yutuqlarni yoritish ustuvorlik kasb etganligini guvohi bo'lamiz. Jumladan, gazetaning 2013-yil sonlaridan birida "Год завершили успешно" nomli maqola chop etilgan. Unda hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar, ishlab chiqarish natijalari va

aholi farovonligiga oid masalalar tahliliy tarzda yoritilgan. Shuningdek, "ИКТ – новое качество жизни" maqolasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji va uning jamiyat hayotiga ta'siri ko'rsatilgan [11]. "Qiziltepa tongi" gazetasining 2008-yil 3-aprel sonida "Maqsad – yoshlarning baxtli kelajagi" maqolasida tuman hokimligi qarorlari, iqtisodiy rejalashtirish va hudud rivojiga oid masalalar keng yoritilgan. Shuningdek, "Hosilni yig'ib olish", "To'lovlar unutilgach...", "Mehnat muhofazasi nazoratda bo'lsin" kabi maqolalarda qishloq xo'jaligi samaradorligi, fermerlar faoliyati, huquqiy-me'yoriy hujjatlar tahlili yoritilgan [12]. "Xatirchi hayoti" gazetasining 2014-yil 5-sentyabr sonida mustaqillik bayramiga bag'ishlangan materiallar, davlat siyosati, mukofotlash marosimlari va rasmiy tadbirlar keng yoritilgan. Bu materiallarda mamlakat taraqqiyoti, Vatanga sadoqat va davlat ramzlariga hurmat g'oyalari ilgari surilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi, xususan, g'alla va paxta yetishtirish, fermer xo'jaliklari faoliyati, tadbirkorlik va ishlab chiqarish jarayonlariga oid maqolalar keng o'rin egallagan. Bu materiallarda iqtisodiy natijalar, mehnat samaradorligi va hududiy rivojlanish masalalari yoritilgan [13]. Shunday qilib, institutsional barqarorlik bosqichida hududiy matbuot tizimi izchil shakllanib, uning asosiy funksiyasi davlat siyosati va hududiy rivojlanish natijalarini yoritishga yo'naltirilgan bo'lib, tanqidiy-tahliliy materiallar ikkinchi darajali ahamiyat kasb etganini kuzatish mumkin. Mazkur holat 2000-2010 yillarda jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning matbuotdagi tarixiy aksini ko'rsatadi.

3. Tanqidiy faollik bosqichi (2017-yildan keyingi davr). Bu bosqichda hududiy bosma nashrlar mazmunida sifat jihatdan yangi o'zgarishlar kuzatiladi. Ijtimoiy muammolarni ochiq yoritish, fuqarolar murojaatlari asosida materiallar

#### 1-jadval. Hududiy bosma nashrlar mazmunining evolyutsion bosqichlari

Bosqich	Davr	Asosiy mazmun	Ustuvor mavzular	Matbuot funksiyasi
Transformatsion tushuntiruv	1990-yillar	Mustaqillik, islohotlarni tushuntirish	iqtisodiy islohotlar, mustaqillik, ishlab chiqarish	tushuntiruv, targ'ibot
Institutsional barqarorlik	2001-2016	Barqarorlik, davlat siyosati	ijtimoiy rivojlanish, qishloq xo'jaligi, ta'lim	rasmiy-axborot
Tanqidiy faollik	2017-yildan keyingi davr	Muammolarni ochiq yoritish	ijtimoiy muammolar, tadbirkorlik, ochiqlik	jamoatchilik nazorati

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, hududiy matbuot mazmunida bosqichma-bosqich evolyutsion o'zgarishlar kuzatiladi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mustaqillik yillarida Navoiy viloyati hududiy bosma nashrlarining mazmuni va funksional yo'nalishlarida izchil evolyutsion o'zgarishlar yuz bergan. Kontent-analiz asosida hududiy matbuot rivoji uch bosqichga – transformatsion tushuntiruv, institutsional barqarorlik hamda tanqidiy faollik davrlariga ajratildi. Aniqlanishicha, dastlabki bosqichda matbuot yangi siyosiy-iqtisodiy tizimni tushuntirish va targ'ib qilish vazifasini bajargan bo'lsa, keyingi bosqichda rasmiy-axborot yo'nalishi ustuvor bo'lgan. So'nggi bosqichda esa ijtimoiy muammolarni yoritish va tanqidiy-tahliliy

tayyorlash hamda tanqidiy-tahliliy chiqishlar ulushi ortadi. "Do'stlik bayrog'i" gazetasining 2020-yil 26-avgust sonida pandemiya sharoitidagi muammolar, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar tahliliy ruhda yoritilgan [14]. "Знамя дружбы" gazetasi materiallarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tanqidiy yoritishi, muammolarni ko'tarish va jamoatchilik fikrini shakllantirishga qaratilgan materiallar salmog'i oshgan. Xususan, 2024-yil 29-iyul sonida chop etilgan "Конструктивный диалог с предпринимателями" maqolasida tadbirkorlar duch kelayotgan muammolar – kreditlash, infratuzilma, litsenziya olish jarayonlari ochiq muhokama qilingan. Materialda mavjud muammolar ochiq ko'rsatilib, ularni hal etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Shuningdek, saylov jarayonlari va siyosiy faoliyatga oid materiallarda ochiqlik, jamoatchilik nazorati va demokratik jarayonlar keng yoritilgan [15]. "Qiziltepa tongi" gazetasining 2018-yil 5-yanvar sonida islohotlar bilan birga muammolar va ularni hal etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va fuqarolar bilan muloqot masalalari ko'tarilgan [16]. "Xatirchi hayoti" gazetasining 2018-yil 16-mart sonida Navro'z bayramiga bag'ishlangan maqolalar bilan bir qatorda ijtimoiy muammolar, mahalla hayoti va aholi turmush darajasi yoritilgan. Ayniqsa, korrupsiya, ekologiya va infratuzilma masalalariga oid materiallar berilgan bo'lib, unda muammolar ochiq ko'rsatilgan [17]. Bu esa so'nggi yillarda jamiyatda ochiqlik va jamoatchilik nazorati mexanizmlarining kuchayganini aks ettiruvchi tarixiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish maqsadida hududiy bosma nashrlar mazmunining evolyutsion bosqichlari quyidagi jadvalda keltirildi.

materiallar ulushining ortishi natijasida matbuotning jamoatchilik nazorati funksiyasi kuchaygan. Tadqiqot natijalari hududiy bosma nashrlar mazmunidagi o'zgarishlar jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy transformatsiyalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanganini ko'rsatadi. Bu esa ularni mustaqillik davri tarixini o'rganishda muhim yozma tarixiy manba sifatida baholash imkonini beradi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi hududiy bosma nashrlarni kontent-analiz asosida tarixiy manba sifatida tizimli o'rganish va ularning rivojlanish bosqichlarini ilmiy asoslashdan iborat. Amaliy jihatdan esa hududiy ommaviy axborot vositalari faoliyatida tanqidiy-tahliliy materiallar ulushini oshirish, ularning jamoatchilik nazorati va ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi rolini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

#### ADABIYOTLAR

- Mirziyoyev, Sh. M. (2022). Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2-nashr). Toshkent: O'zbekiston. 95-bet
- Allworth, E. (1994). The new Central Asians. In Central Asia: 130 years of Russian dominance (pp. 527–572). Duke University Press. <https://doi.org/10.1215/9780822396246-017>
- Baldauf, I. (1991). Some thoughts on the making of the Uzbek nation. Cahiers Du Monde Russe, 32, 79-95.
- Mirzayev, L. (2025). Ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi tutgan o'rni va ahamiyati. Global Science Review, 3(1), 8-14.
- Turaeva, F. (2025). Analysis of genres in Non-Governmental Media Publications of Uzbekistan. Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14727381>

6. Freedman, E. (2004). Designing and implementing the first Environmental and Science Journalism course for an Uzbekistan journalism School. *Applied Environmental Education & Communication*, 3(3), 153–161. <https://doi.org/10.1080/15330150490485930>
7. “Do‘stlik bayrog‘i” gazetasi. 1994-yil 15-noyabr. №81 (1763). 1–4-betlar.
8. “Знамя дружбы” gazetasi. 1993-yil 31-avgust. №102 (1680). 1–2-betlar.
9. “Хатирчи hayoti” gazetasi. 2007-yil 3-mart. №9 (7386). 1–2-betlar.
10. “Do‘stlik bayrog‘i” gazetasi. 2007-yil 26-iyun. №35 (2780). 1–4-betlar.
11. “Знамя дружбы” gazetasi. 2013-yil 27-dekabr. №104 (3383). 1–3-betlar.
12. “Qiziltera tongi” gazetasi. 2008-yil 3-aprel. №14 (4178). 1–8-betlar.
13. “Хатирчи hayoti” gazetasi. 2014-yil 5-sentyabr. №36 (7775). 1–4-betlar.
14. “Do‘stlik bayrog‘i” gazetasi. 2020-yil 26-avgust. №39 (4003). 1–8-betlar.
15. “Знамя дружбы” gazetasi. 2020-yil 29-iyul. №32–33 (4029). 1–4-betlar.
16. “Qiziltera tongi” gazetasi. 2018-yil 5-yanvar. №1 (6289). 1–6-betlar.
17. “Хатирчи hayoti” gazetasi. 2018-yil 16-mart. №11 (7960). 1–4-betlar.
18. Hallin, D. C., & Mancini, P. (2004). *Comparing Media Systems: Three Models of Media and Politics*. Cambridge: Cambridge University Press.